


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish surʼati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **33,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliqchilik xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 018 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili - (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 23,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 1,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 24,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 38,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,0 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




4,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2021- yil 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 391 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 9,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 14,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarinining 3,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,3 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,0** foizga oshdi*




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



32,4
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

2021-yil 1- may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 5 892 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 35,8 % ga (jami savdodagi ulushi 71,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan - 20,9 % ga (jami savdodagi ulushi 20,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 33,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi
- Avtomobil va mototsikllarning tashqari ulgurji
- Avtomobil va mototsikllarning tashqari chakana savdo

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

393



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

11



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,3 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



16,5
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik
korxonalar




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

11



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,7 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



13,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



96

yashash bo'yicha xizmatlar



1 239


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021-yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 335 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 13,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 18,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 1 840 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 640 ga yoki 53,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 725 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 581 ga yoki 50,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 205 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga yoki 42,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 14 504 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 185 ga yoki 28,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 730 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 918 taga yoki 27,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 320 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 503 taga yoki 61,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 174 tani tashkil etib, ulardan 172 tasi yoki 98,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 13 taga yoki 8,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

16

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	172	99	73
tumanlar:			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	5	4	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	6	4	2
Qo'ng'iroq	6	4	2
Qonliko'l	7	4	3
Mo'ynoq	33	23	10
Nukus	10	6	4
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	5	4	1
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	40	22	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 40 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,2 %), Mo'ynoq 33 ta (19,2 %), Taxiatosh 11 ta (6,4 %), Qorao'zak, Nukus tumani va Beruniy 10 tadan (5,8 %), Qonliko'l tumanida 7 tani (4,1 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,4 %), To'rtko'l (10,4 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'irot (5,7 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,2 %), Kegeylida (2,9 %), Qorao'zak (2,8 %), Qanliko'l, Mo'ynoq va Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (1,8 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar- aprel oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,3 %), To'rtko'l (9,6 %), Beruniy (8,8 %), Amudaryo (8,0 %), Ellikqal'a (6,6 %), Nukus (6,0 %), Xo'jayli (5,6%), Qo'ng'irot va Chimboy (4,1 %), Kegeyli (3,8 %), Bo'zatov (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Qonliko'l va Mo'ynoqda (2,8 %), Shumanay (2,7 %), Qorao'zak (1,8 %), Taxtako'pir (1,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

18



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,8 %), To'rtko'l (11,0 %), Beruniy (7,3 %), Amudaryo (6,8 %), Nukus (5,4 %), Qo'ng'irot (5,2 %), Xo'jayli (5,0 %), Ellikqal'a va Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,1 %), Kegeyli (2,9 %), Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,5 %), Bo'zatov (1,7 %), Shumanay (1,6 %), Qonliko'l (1,7 %), Taxtako'pir (1,0 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09